INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI VA FAOLIYATI

Qo‘qon universiteti Andijon filiali
“Pedagogika, psixalogiya jismoniy
madaniyat” kanfedrasi o‘qituvchisi
Kadirova Gulruxsor G’olibjonovna

Anatatsiya: Ushbu maqolada biz jadidchilikni kelib chiqishi va o’zbek jadidlarining ilg’or surgan g’oyalari, jadidlarni bizgacha yetib kelmagan asarlari, kitoblari shuningdek maqolada jadidchilik harakatining tarixiy shakillanishi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini va tafakkuri.Jadidlar xalq uchun qancha harakatlar va qanch-qancha teatrlarni xalq uchun yani xalqni savodini chiqarish uchun reja qilib, yana ham ko’proq ma’lumotlarni xalqqa yetkazib bera olmaganlarini ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zi: jadidchilikning asoslari, jadidchilikning ilg’or surgan g’oyalari haqida umumiy tushuncha Jadidlarni o’qitish usullari.

Kirish. Jadidchilik avval madaniy sohadagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o’rganish, fan yutuqlaridan foydalanish, hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashga chaqirishgan. Jadidchilik dastlab 19 asrning 80 yillarida Qirimda Ismoil Gasprenskiy rahbarliguda qirirm tatarlar o’rtasida vujudga kelgan. Jadidchilik namoyondaliri ko’pincha o’zlarini Taraqqiy parvozlar keyinchalik Jadidlar deb atashgan. O’sha davrning ilg’or taraqqiy parvoz kuchlari birinchi navbatda ziyolilar, mahalliy aholini umumjahondan ortda qolayotganinini his etib jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetkanlar. Jadidchilik mohiyat e’tibor bilan avvalo siyosiy harakat edi. Unish, shakillanish, mag’lubiyatga uchrash davrlari bo’lib o’tdi. Ularni shartli ravishda to’t qisimga bo’lish mumkum.

Turkiston Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-yildan 1929- yilgacha bo’lgan yillarni o’z ichiga oladi. Turkistonni o’rta asrlarga xos qaloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa marifat tarqatish Turkistonda Muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxaro va Xivada kanistitutsuyaviy parlament, keyinchalik deamratik respublika tuzumini o’rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo’shin tuzish. Toshkent , Farg’ona, buxaro,Samarqand va Xivada hur fikirlik taraqqiy parvar kishilarning ayrim guruxlari tamonidan ochilgan ma’daniy-ma’rifiy yo’nalishdagi jamiyat va uyushmalarda Jadidchilik harakati shakillanadi. Turkistonda jadidchilik ni vujudaga keltiruvchilar tepasida Maxmudxo’ja Behbudiy abdulqodir shukuriy ajziy Munavvarqori qodiriy Abdulla avloniy Majid qori qodiriy Ubaydulla xo’ja.jadidchilikning asosiy g’oyalaridan biri ta’lim tizimini yangilashi va didniy qadiryatlarini saqlab qolgan holda zamonaviy bilimlarni qo’llashdir.Jadidchilik faqat tashqi yangilanishni emas balki insonning ma’naviy rivojlanishini ham ko’zda tutgan, fitratga qaytish va ma’naviyatga yo’l ochishni taminlashni maqsad qilgan. Shu bilan birga ular o’qitish uchun turli kitoblarni yaratib darsliklar o’lab topishgan.

Asosiy qisim. Jadidlar tomonidan yaratilgan darsliklar quyidagi asosiy fanlarni o’z ichiga oladi. Ulardan birinchisi o’qitish va yozish. “Adibi avval”, “Adibi soniy” kabi kitoblarni bolalarga savdoni o’rgatishga mo’ljallangan bo’lib, bukitoblarda qisqacha hikoya , she’r, nasuhatklar mavjud. Ikkinchi fan matematikia edi. Bunda qo’shish, ayrish, bo’lish, arfmetik amallar mavjud. Yana o’rganish kerak bo’lgan fan tarix. Bu fanda O’zbek xalqi tarixi, islom

tarixi qisqacha matnlar bilan berilgan, ular o'quvchilarni tarixiy ongini shakillantirishga xizmat qiladi. Geografiya , axloq va tarbiya kabi darslar ham muhim edi. Geografiya turkiston Turkiston va dunyo geografiyasiga oid tushunchalar xaritalar bilan tanishtirishga qaratilgan. Tarbiya darsida insoniy fazilatlar, ota -onaga hurmat , halollik, rostgo'ylik, haquda saboqlar kiritilgan. Shunisi ahamyatli-ki darslikda murakkab, noaniq tushunchalarga yo'l qo'yilmay, o'quvchilar yosh darajasiga mos ravishda soddalashtirilgan matnlar berilgan.

Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja behbudiyning ko'plab asarlarida ko'rishimiz mumkun. Ular tarbiyaga oid ko'plab asar, roman va kitoblar yozgan. Masalan; Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarining bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo'liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir.Ijtimoiy-diyosiy va ma'rifiy asarlarga

Mahmudxo'ja Behbufiyning "Padarkush" (drama) "Risolai jadida", "Kitobi atfol". Behbudiyning asarlari xalqni o'ylashga, uyg'onishiga chaqiradi.Abdurauf Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi qissasi", "Rahbari najo", "oila" kabi asarlari jamiyat islohoti , millati , taqdiri va zamonaviy taffakkurga bag'ishlangan. Jadidchilik harakatining asosiy yo'nalishlari , ta'lim sohasidagi faoliyati- Bu jadidlar eski maktablar o'rniga yangi maktablar tashkil etdilar. Bu maktablarda sinf tizimi, dars jadvali , darslikga va imtihonga joriy etildi. Mahmud xo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir, jadidlar otasidir. M.Behbudiy 30-yanvar kuni Samarqandda tavallud topgan. Otasi Solixo'ja bo'lgan .U dastlab Samarqand Madrasasida keyinchalik Buxaro madrasasida taxsil olgan. 18 yoshida madras ani tamomlagan. U shu bilan birga shariat ilmini ham puxta o'rganib mufti lavozimiga ham ko'tarilgan. Haj safariga yaqin do'sti bo'lgan Hoji Baqo bilan birga boradi. 1903-yilda Samarqand atrofidagi Holvoyi Rajabamin qishloqlarida yangi maktab tashkil qilindi. Behbudiy sog'lig'i bilan bo'lgan muammoga qaramay sayohatga chiqadi.u o'z sayohati yo'lini shunday belgilaydi ; "Kavkaz ,Qirim,Istanbul, Yunoniston ,Bayrut, Misr Qohirasi va yana orqaga Istanbulga qaytib, Temir yo'l bilan Balgariya , avstrya va Berlin orqali Rassiyaga undan Turkistonga qaytib ketish . 27- noyabrga o'tar kechasi "Turkiston muhtoriyati" e'lon qilindi. Mustamlakadan mustaqillik tamon qo'yolgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Uning ma'naviy otasi shubhasiz Behbudiy edi. Behbudiy ochiqchasiga Bovurlarga va qozoqlarga maktub yozadi. Maktubda shunday deyilga edi ; «Bilinh-ki xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz biling-ki haq olinur,lekin berilmas. Inchunin muxtoriyatda olinur, lekin berilmas. Yangi Mxtoriyatni Turkiston bolalrining o'zi birlashib g'ayrat ila olinur. Albatta, boshqalar tarafdan berilmas.Boshqalarning qo'lidan kelsa bermaslar. Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib muxtoriyat yo'lini sa'y qilolmasak, albatta hozirgi qog'oz ustidagi muhtoriyatni ham yo'q qilinur. Bul albatta shaundaydur va bu so'zga hech kim ixtilof qilmaydur ….. Endi ishlar shunday ekan biz hammamiz ittifoq ila shu muxtoriyotni amalga oshirmog'Imiz kerak." bu maktubda so'ng 10ming ta Turkistonlik, 180 ta qa qishloqqa o't qo'yildi. Behbudiy may oyining oxiraga kelib samarqandga qaytadi.Behbudiyning bu harakatlarini ko'rgan muxtoriyat uni bahor oxirlarida shahrisabzdan topib yashirincha, Qarshi shahrida qatl qilishadi Turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishiga G'ozi Yunus ham o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. U ham taraqqiyparvarlar bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Obidjon Mahmudov va boshqa shu kabi insonlarning maslak va maqsadlari yo'lida xizmat qildi. U bir tomondan turli xil bid'at va xurofotlarga chirmashib ketgan islomni pok va musaffo holatga keltirish lozimligini ta'kidlasa, boshqa tomondan xalqni yangi usul maktablarida o'qishga targ'ib etdi. G'ozi Yunus ham aksariyat ziyolilar kabi eski usul maktablari o'z umrini o'tab bo'lganini, undan endi hech

qanday foyda yo‘qligini aksincha qaytaga zarar keltirishini ta’kidladi. Jumladan, u o‘zining “Eski maktablar haqinda” nomli she’rida shunday yozadi:

Ko‘z oching Turon eli, biz ilmsiz pomolmiz,
Ish agar bu yo‘lda ketsa ne bo‘lur ahvolimiz.
Yangi maktablar ochildi bizga lozimdur o‘qish
Ilm olsaq yaxshi bo‘lg‘ay bizning hama af’olimiz.
Eski maktab orqasida bo‘ldi Turkiston harob
Ilmsizlik orasida bitguvsi islomimiz.

G‘ozi Yunus ongli musulmon sifatida islom dinining mintaqa hayotida tutgan o‘rnini chuqur anglagan. U bu dinning eng yetuk vakillari bo‘lmish ulamolarga murojaat qilib, ulardan Turkiston xalqlarini uyg‘otishni, jaholatdan ma’rifatga yo‘naltirishni, turli xil fitna va fasodlarni tugatishni so‘ragan. G‘ozi Yunus ularning asl vazifasi firqalarga bo‘linib olib janjallashishda emas, balki millat va xalqni ma’rifatli qilishda ekanini ta’kidlagan.. Sadriddin Ayniy Behbudiy haqida shunday deb aytadi – « Behbudiy hazratlari ko’rinishadan g’oyat mahobatli va salobatli edi. Ahvolig’a voqif bo’lmag’on kimsamutakabbir deb gumon qilinur edi. Lekin haquqatda suhbatlashsa muloyim takallufsiz biro dam edi. O’z moli haqida bo’lsin , iqtisodg’a ko’prioya qilur va ijtimoiy ahvolining tuzalishi uchun iqtisodg’a rioya qilishni birinchi shartlaridan deb bilae edi. Shuning uchun to’y va a’zalarg’a qiladigon isrofni butunlay tar qilg’an va so’zig’a quloq solmaganni ham butunlay tark qilg’an edi. Mahmudxo’ja Behbudiyning yana bir hikmatli so’zi bor edi. Har zamonning ilmi, parvarishi boshqadur. Madomi-ki, har bola,yani har kimning zamoni boshqa bo’lsa har otag’a o’zfarzandining kelar zamon uchun kelar zamong’a mos holatda muvofiq suratda tarbiya etmog’I va bilm bermog’i lozim bo’lsa, biz na uchun kelar zamon emas,balki hozirgi va bugungi zamon vasoatimizni bolalarimizg’a o’rgatmaymiz. Abdulla avloniy ilm haqida-“ Ilm deb qo’ymak yozmakni yaxshi bilmakni har bir kerakli narsani bilmakni, o’rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzatini oxiratining sharofatidir. Ilm inson uchun g’oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir.”-deb ta’kidlagan bu gaplari bilan Abdulla Avloniy ilm o’rganish bu yozishni bilish o’qishni o’rganish har bir kerakli narsani bilish ustzdan har bir narsani o’rganish, bilishga aytiladi.Bunda bilimni muqqadas narsaga qiyoslagan ,ilmsiz inson go’yo tuzsiz osh kabi bo’lib qoladi. Alisher Navoiyning “Oz-oz o’rganib dono bo’lur qatra-qatra yig’ilib daryo bo’lur.”- deya takidlagan zero ilm bizga o’z hayotimizni opyna kabi ko’rsatadi , zehnimizni fikrimizni o’tkirlaydi. Payg’ambarimiz : “Ilmga amal qiluvchilardan bo’lingiz, naql varivoyat qilguvchilardan bo’lmangiz.” -deydi. Ilm olish bu igna bilan chuquqr qazishdak gap.Biz uchun ilm olish ham farz ham qarzdur.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq», «Birinchi muallim» kabi asarlar maktablar uchun yozildi. Matbuot va adabiyot- jadidlar gazeta va jurnallar orqali xalqni ma’rifatga chaqirdilar. «Taraqqiy», «turkiston», «oyna» kabi nashrlar jamiyatdagi muammolarni ochiq ko’tarib chiqdi. Jadidlar teatrni xalqni tarbiyalash vositasi deb bildilar.

Ilm bir dunyo ichi to’lmish dur-u gavhar bilon
Qiymat-u qadrin qachon bilg’ay johil yilon

Olim kishi har qayerda aziz va hurmatlidir. Shariatimizda qaysi ilmga muhtoj bo’lsang , shuni bilish bizga farzdur. Shuning uchun o’qimak, bilmak zamonlarni qo’ldan bermay, vujudimizni dushmani bo’lgan jaholatdan qutulmakga jonimiz boricha sa’y qilmog’imiz lozimdur. Ilm diniy va fanniy qisimlarga bo’linadi. Diniy ilm bu kishi bo’lmak uchun ulumi diniya o’qimoq ila barobr hisob, handasa yani geometriya tarix, hikmat, kimyo, tib, ziroat ilmlari kabi fanniy ilmlarni ham bilmog’i, chin olim bo’lmog’I lozimdur. Chunki ilmlarni ikkisi ham dunyo va oxirattimiz, hayot va saodatimiz uchun eng kerakli narsadur. O’tkan zamondagi islom ulamolari har bir ilmga tish tirnoqlari bilan yopishdilar, o’qidilar, o’qitdilar

ilm fan soyasida taraqqiyot qildi, madanyat tarqatdi, qiroatxinalar, kitobxonalar, yetimxonalr, kasalxonalar ochildi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» asari Jaholatni fojeali oqibatlaribi ko'rsatib berdi. Jadidichilikning eng og'riqli muhim jihatlaridan biri bizgacha yetib kelmagan, yo'qolgan, yo'q qilingan asarlari. Hammani qiziqtiryatgan savol Nega jadidlarning ko'p kitoblari bizgacha yetib kelmagan ?Buning asosiy sabablari :1920-1930- yillardagi siyosiy qatag'onlar jadidlarning «millatchi», «xalq dushmani»- deb e'lon qilinishi, kitoblarni taqiqlanishi, yoqib yuborilishi, jadidlarni qatl etilishi yoki surgun qilinishi, nashrlarning kichik tirajda chiqishidir. Bizgacha yetib kelmay yo'qolgan asarlari Behbudiyning 1919-yil qatil etilgan, uning asarlari, maqolalar to'plami sahnalashtirilmagan dramatic asarlari bizgacha yetib kelmagan faqatgina nomi malum. Yana ayrim asarlari faqat gazetalarda tilga olinadi, lekin matni to'planmagan. Jadidlarning bizgacha yetib kelmagan,yo'qotilgan asarlari, kitoblari bu oddiy qog'oz emas balki yo'qotilgan tafakkur, bilim ko'nikma manbai va bizning boyligiz- xazinadur. Ularni kitoblari yo'qotilgan bo'lsada ularni g'oyalari yo'qolmadi. Jadidchilik harakatining yirik vakillari qatoriga Mahmudxo'ja behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori, abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon hamda Hamza Hakimzoda Niyoziyni kiritish mumkun. Ularni barchasi hayotini Xalq ma'rifati kelajagiga bag'ishlagan. Jadid merosining yana bir muhim jihati ularning ta'lim sohasida sekulyarizm – dunyoviylikni targ'ib etishidir. Ular jamiyatda, eng avvalo, yoshlar orasida turli diniy e'tiqodlarni hurmat qiladigan, bag'rikenglik muhitini yaratish muhimligiga urg'u berishgan. Munavvarqori Abdurashidxonov "Taraqqiy" jurnalidagi maqolasida bag'rikenglik va inklyuzivlikni targ'ib qiluvchi ta'lim tizimi zarurligini ta'kidlab: "Ta'lim diniy aqidalar va xurofotlardan holi bo'lishi, o'quvchilarning o'z bilimlarini oshirishi va dunyoqarashini shakillantirishi mumkin bo'lgan makonni ta'minlashi kerak", degan edi.

Jadidlarning eng e'tiborga olgan masalalaridan yana biri shuki, Turkistonda xotin-qizlarning savodxonlik darajasi juda ham past ekanligi, ular faqatgina otinoyilar o'z uylarida ochgan uy maktablarida o'qib, o'qish davomida 3-4 tagina diniy suralarni yodlab,so'ng ular uy ishlari bilan shug'ullanishi, nari borsa tikish-bichishni o'rganishi, keyin esa jamiyatda qattiy qonun-qoidaga aylangan erta oila qurish majburiyatini olib, shu bilan bir umr to'rt devor ichida yashashlarini qattiq tanqid qilib, erkak va ayollar teng haq-huquqga ega ekanliklari,bola tarbiyasi bilan asosan onalar tarbiyalaganliklari bois, millat taqdiri uchun ularning bilim saviyasini ko'tarish va yangi maktablar tashkil etishni yoqlab chiqdilar

Xulosa. Jadidlarning aksariyati XX asrning 1920-1630- yillarida qatag'on qilindi. Jadidlar harakati qisqa davom etgan bo'lsada, muhimi natijalarga olib keldi. Yangi usul maktablari orqali savodli yoshlar yetishib chiqdi. Turkistonda jadidchilik harakati milliy uyg'onish harakati bo'lib, xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma'rifatni yoyish va mustaqillik g'oyasini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Jadidlar o'z jonini fido qilib bo'lsa ham, millat ravnaqi uchun xizmat qildilar.

Bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotida jadidlarning ilm, ma'rifat va milliy ong haqidagi g'oyalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Men bu mavzu yuzasidanJadidlarimiz siz uchun kim ? so'rovnoma o'tkazdim. Bunda ayollar erkaklar o'smir yoshdagi bolalar qatnashdi. So'rovnamada 5% ayollar jadidlar haqida bilmadi, 50% erkaklar jadidlarni haqida gapirib berdi. 45% o'smir yoshdagi bolalar Jadidlarni qilgan ishlari kitoblari haqida malumot berib o'tdi.

Natijada: Milly ong va mustaqil fikrlash shakillandi, Jadidlar kim ekanliklarini bilib olishdi. Xulosa qilib aytganda bugungi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda ma'naviyatni yuksaltirishda ko'plab usullari vositalar metodlar mavjud. Biz bu usullarni jadidlarimiznu

ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

g'oyalarini ilgari surgan holda o'z yurtimizni yanada rivojlantirishimiz kerak. Adabiyot, matbuat, san'at ijtimoiy kuchga aylandiJadidlarning g'oyalari xalq xotirasida saqlanib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.M.Behbudiy Muallim ul-avval (boshlang'ich hisob kitob)
2.Toshkent Islom Instituti Mahkamov Mirkamol
3. Jadidlar tamonidan yaratilgan kitob va darsliklar Qodirova Feruza Mamurova
4.Abdug'aniyeva G. O'zbek maktablari va darsliklarishakillanishi tarixi -Toshkent «O'qtuvchi» 1996
5. https://iiau.uz/oz/news/3076
6. https://oliymahad.uz/36485
7.Jadidlar Mahmudxo'ja Behbudiy Toshkent-2022
8.Turkiy guliston yoxud axloq Toshkent